San’at — xalqning qalb tarjimasi, tarixning ranglarda bitilgan xotirasi va kelajak avlodlarga qoldiriladigan ma’naviy meros

Sh.Zayniddinova
K.Behzod nomidagi MRDI magistranti

San’at insonning moddiy va ma’naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san’at, narsa va hodisalarni qanday bo‘lsa shunday aks ettirish va hayotni go‘zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g‘oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma’naviy, milliy dunyosi san’at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma’lum ijtimoiy-estetik ideal nuqtayi nazardan munosabat bildiradi va o‘z estetik bahosini beradi[1]. Zamonaviy raqamlashtirilayotgan jamiyatda san’at asarlarini saqlash va badiiy mohiyatini tomoshabinga yetkazishda nafaqat tasviriy san’at galereyalari va muzeylarda, balki oliy ta’lim muassasalari va jamoatchilik binolarida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. “Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Badiiy galereya o‘quv laboratoriyasi bo‘limi tomonidan ko’rgazmalar siatida namoyish etilib kelinmoqda. Ushbu galereyada turli xil yuqori badiiy qiymatga ega bo’lgan san’at asarlari joy olgan. Quyida mazkur asarlar yuzasidan qisqa tahlil va asarlar taqdim etiladi.


Rassom Xurshid Nazarov muallifligidagi “O‘zbek go‘zali” mavzusidagi portret tomoshabin e’tiborini tortadi. (mato, moybo'yoq o'lchami 100x100) "Go‘zallik nafaqat tashqi qiyofada, balki milliy qadriyatlar, nafosat va ma'naviy boylikning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Ushbu asar o‘zbek ayolining latofati, iftixori va milliy ruhini yorqin aks ettiradi."



"Qizil Buxoro" Dilorom Mamedova. Mato moybo'yoq, o'lchami 100x100 sm.Mazkur asarda rassom qadimiy Buxoro shahrining betakror me'moriy qiyofasini yorqin va jo'shqin ranglar orqali talqin etgan. Ijodkor ranglarning palitrasi orqali shaharning tarixiy salobati, Sharq me'morchiligining ulug'vorligi hamda quyosh nurlariga burkangan muhitini ifodalaydi. Impressionizmda ishlangan kompozitsiya tomoshabinni Buxoroning qadimiy ko'chalari va me'moriy obidalariga ruhiy sayohatga chorlaydi. Asar milliy madaniy merosimizning go'zalligi, tarixiy xotirasi va badiiy jozibasini zamonaviy rangtasvir vositalari orqali yuksak mahorat bilan aks ettiradi. "Buxoro bizning

[1] Pugachenkova G. A., Rempel L. I., Istoriya iskusstv O‘zbekistana, M., 1965;

muqaddas vatanimizdir. Buxoro bizning mehribon onamizdir, Buxoro bizning nash'u namo joyimiz. Buxoro bizning sajdagohimizdir." — Abdurauf Fitrat



"Vaqt ramzi" Muallif:Daler Mixtojov (Tojikiston). Markazdagi donishmand siymo hayot tajribasi va hikmat ramzi sifatida tasvirlangan bo‘lib, uning atrofidagi me'moriy kompazaitsiyalar qadimiy Sharq sivilizatsiyasi va madaniy merosni aks ettiradi. Yorqin sariq va to‘q ko‘k ranglar o‘tmish hamda kelajak, yorug‘lik va cheksizlik o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalaydi. Kompozitsiyada uchraydigan anorlar oila, hayot davomiyligi va serhosillik timsolidir. Asar tomoshabinni vaqtning o‘tkinchiligi bilan birga, inson qoldiradigan ma'naviy merosning abadiyligi haqida mushohada yuritishga chorlaydi.

G'uncha ochilguncha o’tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba’zida bir nafas olg’ulik muddat -
Ming yulduz so’nishi uchun yetgulik.
"G'.G'ulom"




“Sherdor” Asar muallifi:Jumanov Jamshid. Mazkur asarda Samarqand shahrining betakror me’moriy yodgorliklaridan biri — Sherdor madrasasi tasvirlangan. Rassom tarixiy obidaning mahobatli peshtoqi, nafis bezaklari, moviy gumbazlari va baland minoralarini yorqin ranglar uyg‘unligida aks ettirgan. Asarda moviy osmon, iliq sariq va oltin tuslar hamda sokin shahar manzarasi bir-biri bilan uyg‘unlashib, Samarqandning qadimiy va o‘ziga xos ruhini ifodalaydi. Asar orqali Samarqandning boy tarixiy-madaniy merosi, Registon maydonining me’moriy jozibasi va Sharq me’morchiligiga xos nafislik namoyon etilgan. Sherdor madrasasi tasviri nafaqat tarixiy obidaning tashqi qiyofasini, balki Samarqandning qadimiy ruhi va go‘zalligini ham badiiy ifoda etadi.



Asar nomi: “Birinchi Renessans”. Muallif: Mirali Mahmudov. “Birinchi Renessans” asarida Markaziy Osiyoda yuz bergan ilm-fan, ma’rifat va madaniyat yuksalishi, buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasi badiiy ifoda etilgan. Kompozitsiyaning markazida o‘z davrining buyuk qomusiy olimlari va mutafakkirlari tasvirlangan bo‘lib, ular ilm, tafakkur va ma’rifat ramzi sifatida gavdalantirilgan. Ularning atrofida kitoblar, qo‘lyozmalar, ilmiy izlanishlar va me’moriy obidalar tasviri uyg‘unlashib, ajdodlarimiz yaratgan boy ilmiy-ma’naviy merosni aks ettiradi. San'at asari mustaqilligimizning 30 yilligi uchun maxsus ishlangan.



“Go'ri Amir”. Muallif: Dilorom Mamedova. Mazkur asarda Samarqand shahrining buyuk tarixiy-me’moriy yodgorliklaridan biri — Go‘ri Amir maqbarasi tasvirlangan. Kompozitsiyaning markazida maqbaraning mahobatli peshtoqi va moviy gumbazi joylashgan. Atrofdagi qadimiy me’moriy shakllar esa Samarqandning tarixiy qiyofasi va Sharqona shahar muhitini aks ettiradi. Asarda sariq, oltin, qizil, to‘q sariq va ko‘k ranglarning uyg‘unligi kuchli badiiy taassurot uyg‘otadi. Qalin va erkin rang surtmalari orqali maqbaraning ulug‘vorligi, qadimiyligi hamda tarixiy ruhi ifodalangan. To‘q fon esa markazdagi me’moriy yodgorlikni yanada yorqin va ta’sirchan ko‘rsatadi.



“Xiva” Muallif Elyor Alimirzayev(Ozarbayjon). O‘lchami: 90 × 120 sm. Texnikasi: Moybo‘yoq, mato. Mazkur asarda qadimiy Xiva shahrining o‘ziga xos me’moriy qiyofasi, tarixiy obidalari va betakror muhiti tasvirlangan. Kartinada moviy osmon fonida qad rostlagan minora, gumbazlar va qadimiy binolar uyg‘unligi Xivaning ko‘hna va mahobatli qiyofasini namoyon etadi. Rassom yorqin ranglar, kuchli yorug‘lik va erkin mo‘yqalam zarbalari orqali Xivaning quyoshli, sokin va tarix nafasi ufurib turgan muhitini mahorat bilan ifodalagan. Asar tomoshabinni

Ichan-Qal’a ko‘chalariga, qadimiy Xivaning betakror tarixiy manzaralariga chorlaydi. “Xiva o‘zining qadimiy obidalari va me’morchiligi bilan Markaziy Osiyoning eng diqqatga sazovor shaharlaridan biridir.”



— V. V. Bartold. “Uyg‘ur kuyov” Muallif: Alisher Hamdamov. O‘lchami: 100 × 100 sm. Janri: Portret. Texnikasi: Moybo‘yoq, mato. “Uyg‘ur kuyov” asarida uyg‘ur xalqining milliy qiyofasi, urf-odatlari va boy madaniy merosi aks ettirilgan. San'at asarida milliy libos kiygan yosh kuyov siymosi tasvirlangan. Uning kiyimidagi nafis naqshlar, an’anaviy bosh kiyimi, kamar va bezaklar uyg‘ur xalqining o‘ziga xos milliy madaniyatini namoyon etadi. Asardagi qahramonning jiddiy va o‘ziga ishongan nigohi esa uning mardligi, g‘ururi va ichki salohiyatini ifodalaydi. Muallif ranglar uyg‘unligi va milliy bezaklardan mahorat bilan foydalanib, uyg‘ur xalqining tarixiy-madaniy qiyofasini badiiy talqin etgan.“O‘zbeklar va uyg‘urlar — turli lahjalarda so‘zlashuvchi bir millat, deyish mubolag‘a bo‘lmaydi.”— Abdulla Oripov



“Buxoro” Muallif: Daler Mixtojov(Tojikiston). O‘lchami: 70 × 110 sm. Texnikasi: Moybo‘yoq, mato. Ijodkor maskur asarda qadimiy Buxoro shahrining maftunkor jozibadorligini boy madaniy merosini o'ziga xos uslubda ranglar palitrasida tasvirlagan.Asarning umumiy ruhida Buxoroning Markaziy Osiyodagi qadimiy ilm-fan, hunarmandchilik, savdo va madaniyat markazlaridan biri sifatidagi qiyofasi mujassam. Me’moriy shakllarning ranglar bilan uyg‘unligi tomoshabinni qadimiy Buxoro ko‘chalariga, uning tarixiy obidalari va betakror Sharqona muhitiga chorlaydi. “Buxoro mashriq shaharlaridan biri bo‘lib, Qubbat ul-Islomdir.” — Alouddin Atomalik Juvayniy, “Tarixi Jahongushoy”



“Minorai Kalon” Muallif: Alisher Hamdamov. O‘lchami: 100 × 100 sm. Texnikasi: Moybo‘yoq, mato. Mazkur asarda Buxoroning qadimiy va betakror me’moriy yodgorliklaridan biri — Minorai Kalon tasvirlangan. Asarning markazida mahobatli minora qad rostlab, uning atrofidagi tarixiy masjid va me’moriy inshootlar

bilan uyg‘unlikda aks ettirilgan. Moviy osmon, mayin bulutlar va iliq ranglar Buxoro shahrining sokin va o‘ziga xos muhitini ifodalagan. Rassom tarixiy obidaning salobati va nafis me’moriy bezaklarini ranglar hamda yorug‘lik-soya uyg‘unligi orqali mahorat bilan ochib bergan. “Minorai Kalon — Buxoro qadimiy me’morchiligining eng yaxshi yodgorliklaridan biridir.” — V.V. Bartold, tarixchi va sharqshunos



"Ko'k Gumbaz masjidi". Muallif: Abqahhor Majidov. O‘lchami: 80 × 110 sm. Texnikasi: Moybo‘yoq, mato..Ijodkor maskur asarda Shahrisabz shahrining tarixiy durdonasi — Ko'k Gumbaz masjidi aks ettirilgan. Rassom asarda realizm an'analariga sodiq qolgan holda, me'moriy majmuaning monumentalligi va go'zalligini yorqin ranglarda tasvirlaydi.Kartina tinchlik, ulug'vorlik va tarixiy merosga hurmat hissini uyg'otadi. Rassom nafaqat me'moriy shaklni, balki o'sha davrning ruhiyatini, Sharqning qadimiy jozibasini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. “Kesh — katta shahar bo‘lib, uning atrofi ko‘plab bog‘lar va uylar bilan o‘ralgan edi.” — Rui Gonsales de Klavixo, “Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi”, 1404-yil.



“Ark qal’asi” Muallif: Yu Xinxua (Xitoy). O‘lchami: 90 × 120 sm

Texnikasi: Moybo‘yoq, mato. Ushbu salobatli kartinada Buxoro shahrining qadimiy yuragi — mahobatli Ark qal’asi tasvirlangan. Rassom Yu Xinxua asarda o‘ziga xos Sharqona koloritni g‘arb rangtasvir maktabi an’analari bilan uyg‘unlashtirib, tarixiy obidaning nafaqat me’moriy qiyofasini, balki uning ko‘p asrlik ruhini ham yetkazib berishga muvaffaq bo‘lgan.Kartina tinchlik, ulug‘vorlik va tarixga chuqur hurmat hissini uyg‘otadi. Quyoshli kunning iliq nurida Ark qal’asi xuddi o‘tmish va bugunni bog‘lab turgan afsonaviy bir yodgorlikdek namoyon bo‘ladi. “Qancha marta qayta qurilsa, yana buzilar edi.” — Abu Bakr Narshaxiy, “Buxoro tarixi”



“Yorqin Buxoro” Muallif: Xurşid Ibrohimov. Ölchami: 50 × 70 sm. Texnikasi: Moyböyoq, mato. Ushbu jozibador kartinada Buxoro şahrining serquyoş va mahobatli obidalaridan biri aks ettirilgan. Asarda quyoş nurining me'moriy şakllarda öynaşi hamda şarqona hayot ritmi özaro uyğunlikda talqin qilingan.Kompozitsiyaning markazida baland va mustahkam devorlar ortida qad rostlagan firuza rangli gumbaz joylashgan. Gumbaz gardişidagi koşinlar va xattotlik yozuvlari diqqat bilan işlangan. Mahobatli bino devorlarining sarğiş ranglari quyoş nurida yorqirab, asarga issiq va iliq harorat bağişlaydi. “Buxoro maşriq şaharlaridan biri bölib, Qubbat ul-Islomdir.”

— Alouddin Atomalik Juvayniy, “Tarixi Jahonguşoy”



Xulosa qilib aytganda, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Badiiy galereya o‘quv laboratoriyasida namoyish etilayotgan san’at asarlari xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi, milliy qadriyatlari, ma’naviy dunyosi va estetik tafakkurini o‘zida mujassam etgan betakror badiiy namunalar hisoblanadi. Mazkur asarlarda qadimiy shaharlarimizning mahobatli me’moriy obidalari, milliy urf-odatlarimiz, inson go‘zalligi, ajdodlarimizning ilmiy-ma’rifiy merosi hamda vaqt va hayot mazmuni kabi teran falsafiy tushunchalar ranglar, obrazlar va kompozitsion yechimlar orqali mahorat bilan ifodalangan.

Xurshid Nazarovning “O‘zbek go‘zali” asarida milliy latofat va ayol siymosiga xos ma’naviy go‘zallik tarannum etilsa, Dilorom Mamedovaning “Qizil Buxoro” va “Go‘ri Amir” kartinalarida tarixiy shaharlarimizning betakror qiyofasi, me’moriy salobati va Sharqona nafosati yorqin namoyon bo‘ladi. Jumanov Jamshidning “Sherdor”, Elyor Alimirzayevning “Xiva”, Alisher Hamdamovning “Minorai Kalon” va “Uyg‘ur kuyov”, Abqahhor Majidovning “Ko‘k Gumbaz masjidi”, Yu Xinxuaning “Ark qal’asi” hamda Xurshid Ibrohimovning “Yorqin Buxoro” kabi asarlari esa tarixiy xotira, milliy o‘zlik va madaniyatlararo mushtaraklikning badiiy ifodasidir. Mirali Mahmudovning “Birinchi Renessans” asari buyuk ajdodlarimizning ilm-fan va ma’rifat rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini yodga solsa, Daler Mixtojovning “Vaqt

ramzi” va “Buxoro” asarlari inson umri, ma’naviy meros va tarixiy davomiylik haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi. Ushbu asarlarning badiiy qimmati nafaqat ularning tasviriy ifodasi, ranglar uyg‘unligi va ijodkorlarning individual uslubida, balki tomoshabinning qalbida uyg‘otadigan tuyg‘ulari, tafakkuriga ta’siri va ma’naviy dunyosini boyitish imkoniyatida ham namoyon bo‘ladi. Har bir kartina o‘ziga xos badiiy til orqali o‘tmish va bugun, milliylik va umuminsoniylik, tarix va zamonaviylik o‘rtasida ma’naviy ko‘prik vazifasini bajaradi. Shu jihatdan galereyada namoyish etilayotgan asarlar nafaqat estetik zavq manbai, balki yosh avlodni milliy merosga hurmat, tarixiy xotiraga sadoqat va go‘zallikni anglash ruhida tarbiyalashning muhim vositasi hamdir.

Bugungi raqamlashtirish va globallashuv jarayonida bunday badiiy boyliklarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy axborot texnologiyalari orqali keng targ‘ib qilish, virtual ko‘rgazmalar va raqamli kataloglar yaratish san’at asarlarining mazmunini yanada keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Bu esa nafaqat madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish, balki xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlash, turizm salohiyatini oshirish va milliy san’atimizni jahon miqyosida tanitishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Badiiy galereyasi san’at asarlari namoyish etiladigan maskan bo‘lish bilan birga, tarixiy xotira, ijodiy tafakkur va ma’naviy kamolot uyg‘unlashgan muhim madaniy-ma’rifiy makondir. Uning faoliyati orqali san’atning inson qalbini yuksaltiruvchi, millat ruhini namoyon etuvchi va avlodlarni bir-biriga bog‘lovchi beqiyos kuchi yanada yorqin namoyon bo‘ladi.

Zero, san’at — xalqning qalb tarjimasi, tarixning ranglarda bitilgan xotirasi va kelajak avlodlarga qoldiriladigan ma’naviy merosdir. Har bir san’at asarida o‘tmish nafasi, bugunning nigohi va kelajak umidi mujassam. Uni qadrlash, asrash va keng targ‘ib etish esa milliy madaniyatimizning davomiyligi hamda ma’naviy boyligimizning bardavomligini ta’minlaydigan ezgu vazifadir.